



## KAMBAG‘ALLIKNI QISQARTIRISHNING IQTISODIY MEXANIZMLARI

**Xalmatjanov Farxod Maxammatjanovich**

*Alfraganus universiteti*

*Iqtisodiyot fakulteti katta o‘qituvchisi*

**Abduraxmonov Shohruh Sherzod o‘g‘li**

*Alfraganus universiteti*

*Jahon iqtisodiyoti va xalqaro iqtisodiy*

*munosabatlar yo‘nalishi 2-bosqich talabasi*

**Annotatsiya:** Ushbu maqolada O‘zbekiston sharoitida kambag‘allikni qisqartirishning iqtisodiy mexanizmlari keng tahlil qilingan. Kambag‘allikning mohiyati, shakllari va sabablari ilmiy adabiyotlar va xalqaro tashkilotlarning yondashuvlari asosida ochib berilgan. Maqolada O‘zbekistonda kambag‘allikni qisqartirish borasida amalga oshirilayotgan davlat siyosati va islohotlar, jumladan, bandlikni oshirish, tadbirkorlikni qo‘llab-quvvatlash, ijtimoiy himoya tizimini kuchaytirish va inson kapitaliga investitsiya kiritish bo‘yicha olib borilayotgan chora-tadbirlar keng yoritilgan. Shuningdek, Xitoy, Janubiy Koreya va Turkiya tajribasi bilan qiyosiy tahlillar o‘tkazilib, mamlakatimiz uchun samarali bo‘lishi mumkin bo‘lgan yo‘nalishlar aniqlangan. Maqola yakunida kambag‘allikka qarshi kurashning istiqbolli mexanizmlari va amaliy tavsiyalar ishlab chiqilgan.

**Kalit so‘zlar:** Kambag‘allik, iqtisodiy mexanizmlar, ijtimoiy himoya, bandlik, tadbirkorlik, daromadlar tengsizligi, barqaror rivojlanish.

**Abstract:** This article provides an in-depth analysis of the economic mechanisms for poverty reduction in Uzbekistan. The essence, forms, and causes of poverty are revealed based on scientific literature and the approaches of international organizations. The article highlights the state policies and reforms being implemented in Uzbekistan to reduce poverty, including measures to increase employment, support entrepreneurship, strengthen the social protection system, and



invest in human capital. Comparative analyses with the experiences of China, South Korea, and Turkey are also presented, identifying directions that could be effective for the country. In conclusion, the article develops promising mechanisms and practical recommendations for combating poverty.

**Keywords:** Poverty, economic mechanisms, social protection, employment, entrepreneurship, income inequality, sustainable development.

**Аннотация:** В данной статье подробно проанализированы экономические механизмы сокращения бедности в условиях Узбекистана. Сущность, формы и причины бедности раскрыты на основе научной литературы и подходов международных организаций. В статье освещаются государственная политика и проводимые реформы в Узбекистане по сокращению бедности, включая меры по повышению занятости, поддержку предпринимательства, укрепление системы социальной защиты и инвестирование в человеческий капитал. Также проведён сравнительный анализ опыта Китая, Южной Кореи и Турции, определены направления, которые могут быть эффективными для нашей страны. В заключение разработаны перспективные механизмы и практические рекомендации по борьбе с бедностью.

**Ключевые слова:** Бедность, экономические механизмы, социальная защита, занятость, предпринимательство, неравенство доходов, устойчивое развитие.

**Kirish:** Kambag‘allik har bir davlat taraqqiyotining eng muhim ijtimoiy-iqtisodiy muammolaridan biri hisoblanadi. U aholining turmush darajasiga, ijtimoiy barqarorlikka va mamlakat iqtisodiy xavfsizligiga bevosita ta’sir ko‘rsatadi. Jahon bankining ma’lumotlariga ko‘ra, dunyo bo‘yicha 700 milliondan ortiq inson mutlaq kambag‘allik sharoitida yashamoqda. Bu esa insoniyat taraqqiyotiga to‘sinqinlik qiluvchi eng muhim global muammolardan biri ekanini ko‘rsatadi.

O‘zbekiston mustaqillikka erishgan dastlabki yillarda iqtisodiy tizimdagи islohotlar davomida kambag‘allik darjasи yuqori bo‘lgan. Ammo keyingi yillarda



amalga oshirilgan davlat siyosati va iqtisodiy o‘zgarishlar natijasida bu ko‘rsatkich bosqichma-bosqich qisqarmoqda. Davlat statistika qo‘mitasining 2023-yilgi ma’lumotlariga ko‘ra, 2001-yilda mamlakatda kambag‘allik darajasi 27 foizni tashkil etgan bo‘lsa, 2022-yilga kelib 14 foizgacha tushirilgan.<sup>1</sup> Prezident Shavkat Mirziyoyev bu masalaga alohida urg‘u berib, shunday degan edi:

“Bizning eng katta maqsadimiz – xalqimizning farovonligini oshirish, kambag‘allikni qisqartirish va odamlar uchun yangi imkoniyatlar yaratishdir.<sup>2</sup>”

Shu boisdan 2021-yilda mamlakatimizda “Kambag‘allikni qisqartirish va bandlik vazirligi” tashkil etildi. Bu esa O‘zbekistonda kambag‘allikka qarshi kurash davlat siyosatining markaziga aylanganini yaqqol ko‘rsatadi.

**Asosiy qism:** Kambag‘allik iqtisodiy va ijtimoiy kategoriyalardan biri sifatida turli shakllarda namoyon bo‘ladi. Uning asosiy sabablari — bandlik darajasining pastligi, aholining ma’lum bir qismining ta’lim va sog‘liqni saqlash imkoniyatlaridan yetarlicha foydalana olmasligi, iqtisodiy resurslarningadolatsiz taqsimlanishi hamda global inqirozlar ta’siridir. Jahon banki va BMT hisobotlariga ko‘ra, kambag‘allik faqat moddiy taqchillik emas, balki insonning imkoniyatlarini cheklovchi omil hamdir.<sup>3</sup> O‘zbekistonda so‘nggi yillarda kambag‘allikni qisqartirish bo‘yicha keng ko‘lamli chora-tadbirlar amalga oshirilmoqda. Avvalo, bandlik siyosati davlatning eng muhim yo‘nalishiga aylandi. Har yili yuz minglab yangi ish o‘rinlari yaratilmoqda, sanoat zonalari, texnoparklar va kichik ishlab chiqarish korxonalari tashkil qilinmoqda. Ayniqsa, yoshlar va ayollar bandligini ta’minalashga qaratilgan maxsus dasturlar o‘z samaralarini bermoqda. Davlat statistika qo‘mitasining ma’lumotlariga ko‘ra, 2022-yilda 200 mingdan ortiq yangi ish o‘rinlari yaratilgan. Tadbirkorlikni qo‘llab-quvvatlash ham kambag‘allikka qarshi kurashning samarali mexanizmlaridan biridir. Prezident tashabbusi bilan amalga oshirilayotgan “Har bir oila – tadbirkor” dasturi orqali minglab oilalar kichik biznes faoliyatini boshlash imkoniga ega bo‘ldi. Xalq banki va boshqa moliya institutlari

<sup>1</sup> O‘zbekiston Respublikasi Davlat statistika qo‘mitasi. (2023). Rasmiy statistika byulleteni.

<sup>2</sup> O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining nutqlari va farmonlari. (2019–2023). Kambag‘allikni qisqartirishga oid dasturlar.

<sup>3</sup> Jahon banki (World Bank). (2022).



aholiga imtiyozli kreditlar ajratib, ularni tadbirkorlik faoliyatiga jalg qilmoqda. Shuningdek, “Yoshlar – kelajagimiz” dasturi orqali yoshlar startap loyihalari moliyaviy jihatdan qo‘llab-quvvatlanmoqda.

Kambag‘allikka qarshi kurashda ijtimoiy himoya tizimining ham o‘rnini beqiyosdir. So‘nggi yillarda “Temir daftari”, “Ayollar daftari” va “Yoshlar daftari” joriy qilinib, kam ta’minlangan qatlamlar manzilli aniqlanmoqda va ularga moddiy hamda ijtimoiy yordam ko‘rsatilmoqda. Bundan tashqari, pensiya va nafaqa tizimi qayta ko‘rib chiqilib, aholining ijtimoiy himoya darajasi oshirilmoqda.<sup>4</sup> Ta’lim va inson kapitaliga sarmoya kiritish kambag‘allikka qarshi kurashning eng samarali va uzoq muddatli yo‘nalishidir. So‘nggi yillarda maktabgacha ta’lim muassasalarini qamrovi kengaytirildi, oliy ta’limga kirish imkoniyatlari yildan-yilga ortmoqda. Yoshlarni kasb-hunarga o‘qitish markazlari tashkil etilib, ular mehnat bozorida talab yuqori bo‘lgan mutaxassisliklarga tayyorlanmoqda. Natijada, yuqori daromadli va barqaror ish o‘rinlari uchun zarur kadrlar shakllanmoqda.

O‘zbekiston tajribasi bilan bir qatorda, xalqaro tajriba ham o‘rganilmoqda. Xitoyning “bir oilaga – bir biznes” dasturi kambag‘allikka qarshi kurashda samarali natijalar bergen. Janubiy Koreya esa ta’lim va texnologiyaga katta e’tibor qaratish orqali qisqa davrda kambag‘allikni sezilarli darajada kamaytirgan. Turkiyada esa kichik va o‘rta biznesni qo‘llab-quvvatlash kambag‘allikni kamaytirishda muhim omil bo‘lgan.<sup>5</sup> O‘zbekiston ham ushbu tajribalarni o‘z sharoitiga moslashtirish orqali ijobiy natjalarga erishmoqda.

Shunday qilib, mamlakatimizda kambag‘allikka qarshi kurash kompleks tarzda olib borilmoqda. Bunda bandlik siyosati, tadbirkorlikni rivojlantirish, ijtimoiy himoya tizimini mustahkamlash, ta’lim va inson kapitaliga sarmoya kiritish hamda xalqaro tajribadan foydalanish asosiy mexanizmlar sifatida qaralmoqda.

<sup>4</sup> O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi qarorlari. (2021). Ijtimoiy himoya tizimini takomillashtirish.

<sup>5</sup> Asian Development Bank (ADB). (2021). Central Asia: Poverty Reduction Strategies.



**Xulosa:** Kambag‘allikni qisqartirish nafaqat ijtimoiy adolatni ta’minlash, balki barqaror iqtisodiy rivojlanishni ta’minlash uchun ham muhimdir. O‘zbekistonda so‘nggi yillarda bu borada erishilgan natijalar shuni ko‘rsatmoqdaki, davlatning izchil siyosati va iqtisodiy islohotlar aholining turmush darajasini yaxshilashga xizmat qilmoqda. Bandlikni oshirish orqali aholining daromadlari ko‘paymoqda, tadbirkorlikni qo‘llab-quvvatlash esa oilalarning iqtisodiy mustaqilligini kuchaytirmoqda. Ijtimoiy himoya tizimining mustahkamlanishi kam ta’minlangan qatlamlarni qo‘llab-quvvatlash imkonini bermoqda. Ta’lim va inson kapitaliga kiritilayotgan investitsiyalar esa kelajakda kambag‘allikka barham berishning eng muhim garovi hisoblanadi.

Prezident Shavkat Mirziyoyev ta’kidlaganidek:

“Kambag‘allikka barham berish – bu bizning eng asosiy maqsadimiz. Chunki har bir fuqaro baxtli hayot kechirmasa, hech qanday islohotning samarasini ko‘rmaymiz”

Kelajakda mamlakatimizda kambag‘allikka qarshi kurashning izchil davom ettirilishi, xalqaro tajribalar asosida yangi dasturlar ishlab chiqilishi va ijtimoiy adolatning mustahkamlanishi orqali O‘zbekistonning ijtimoiy-iqtisodiy taraqqiyotida yanada yuqori natijalarga erishish mumkin bo‘ladi.

### **FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI:**

1. O‘zbekiston Respublikasi Davlat statistika qo‘mitasi. (2023). Rasmiy statistika byulleteni.
2. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining nutqlari va farmonlari. (2019–2023). Kambag‘allikni qisqartirishga oid dasturlar.
3. Jahon banki (World Bank). (2022).
4. O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi qarorlari. (2021). Ijtimoiy himoya tizimini takomillashtirish.
5. Asian Development Bank (ADB). (2021). Central Asia: Poverty Reduction Strategies.